


Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

(2020-yil yanvar-mart)

2020-yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **664,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **100,4** % ni tashkil etdi.




Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **68,5** mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati **90,2** % bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **10,3** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **72,8** % i to'g'ri kelib, shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **116,9** % ni tashkil etgan holda

483,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari **16,9 %** ni tashkil etdi va **112,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **66,7 %** ni tashkil etgani kuzatildi.

Tashkilot turlari bo'yicha qurilish ishlari





Davlat va nodavlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




○ Nodavlat mulki


○ Davlat mulki

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **14,9** mlrd. so'm yoki 2019-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **74,2** % ga qurilish ishlari kamaygan, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **649,9** mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'sish sur'ati **101,3** % ni tashkil etdi. Ularning respublikadagi ulushlari mos ravishda **2,2** % va **97,8** % ni tashkil etdi.


Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi.




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 68,3 % i yoki 453,9 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 10,4 mlrd. so'm ishlar bajarildi, yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 23,4 % tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 333,3 mlrd. so'm, yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 70,2 % tashkil etdi.



Norasmiy sektor hissasiga 110,2 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 97,9 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

2020-yil yanvar-mart

69,5 %

Bino va inshootlar qurish
bo'yicha qurilish ishlari

461,8
mlrd. so`m

12,0 %

Fuqarolik obyektlarini qurish
bo'yicha qurilish ishlari

79,7
mlrd. so`m

18,5 %

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlar

123,3
mlrd. so`m


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun moljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(ulushi % da)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **8,2 %** ni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **11,9 %** punktga ko'payib, **67,4 %** ni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ushbu faoliyatdagi ulushi **24,4 %** ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **14,2 %** ga kamayish kuzatiladi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

(ulushi, % da)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxonalar va
mikrofirmalar


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **14,0 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **17,9 %** punktga kamaydi. Ushbu faoliyat turidan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi **86,0 %** ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **17,9 %** punktga ko'paydi.




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **19,5 %** punktga kamaydi va **23,1 %** ni tashkil etdi. Qolgan **76,9 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **19,5 %** punktga ko'paydi.

Korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlari

(2020-yil yanvar-mart)


(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan korxonalar turlari bo'yicha:		
		Yirik qurilish korxonalari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	664,8	68,5	483,7	112,6
Nukus sh. tumanlar:	247,8	1,9	238,9	7,0
Amudaryo	36,3	3,5	27,6	5,2
Beruniy	43,3	-	32,3	11,0
Bo'zotov	2,1	0,9	1,1	0,1
Qorao'zak	12,5	0,1	12,1	0,3
Kegeyli	11,4	3,8	3,6	4,0
Qo'ng'iro't	73,3	29,2	36,4	7,7
Qonliko'l	10,7	0,1	4,3	6,3
Mo'ynoq	12,1	-	8,0	4,1
Nukus	36,2	0,3	16,4	19,5
Taxiatosh	28,4	10,5	14,7	3,2
Taxtako'pir	19,8	5,0	14,4	0,4
To'rtko'l	43,7	0,6	20,0	23,1
Xo'jayli	35,7	10,1	18,6	7,0
Chimboy	11,1	2,1	7,3	1,7
Shumanoy	10,1	-	9,2	0,9
Ellikqal'a	30,3	0,4	18,8	11,1

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

	(2020-yil yanvar-mart)		(mlrd. so'm)
	Qurilish ishlari hajmi	O'sish sur'ati, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	664,8	100,4	100,0
Nukus sh.	247,8	100,5	37,2
tumanlar:			
Amudaryo	36,3	100,8	5,5
Beruniy	43,3	100,2	6,5
Bo'zotov	2,1	101,9	0,3
Qorao`zak	12,5	101,3	1,9
Kegeyli	11,4	103,3	1,7
Qo'ng'iro't	73,3	100,7	11,0
Qonliko'l	10,7	101,7	1,6
Mo'ynoq	12,1	83,1	1,8
Nukus	36,2	101,0	5,4
Taxiatosh	28,4	100,2	4,3
Taxtako'pir	19,8	101,1	3,0
To'rtko'l	43,7	102,2	6,6
Xo'jayli	35,7	100,4	5,4
Chimboy	11,1	100,0	1,7
Shumanoy	10,1	101,2	1,5
Ellikqal`a	30,3	102,4	4,6

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika
boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 230-82-13
(71) 230-82-14
(61) 222-75-91